

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5141100 - o'zbek tili va adabiyoti bakalavr
ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

OTAJANOVA NAFISA SOBIROVNANING

**«UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA DRAMATIK ASARLARNI
O'RGATISH»
*mavzusidagi***

MALAKAVIY – BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar:

N.Allambergenova

NUKUS- 2011

Malakaviy – bitiruv ishi o`zbek adabiyoti kafedrası yig`ilishining «_____» _____dagi №_____bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	dots.K.Tashanov
Kafedra mudiri:	f.f.n.S.Matyakupov
Ilmiy rahbar:	ass.N.Allamberganova

**Otajonova Nafisa Sobirovnaning «UMUMTA`LIM
MAKTABLARIDA DRAMATIK ASARLARNI O`RGATISH»
mavzusidagi bitiruv – malakaviy ishiga Davlat attestatsiya
komissiyasining qarori bilan «_____» ball («_____»%) qo`yildi.**

DAK kotibasi:	S.Bekchanova
----------------------	---------------------

«UMUMTA`LIM MAKTABLARIDA DRAMATIK ASARLARNI O`RGATISH»

М У Н Д А Р И Ж А

Kirish.....4-bet

I bob. MAQSUD SHAYXZODA VA O`ZBEK DRAMATURGIYASI

1-fasl. Dramatik tur va uning janrlari7-bet

2-fasl. M.Shayxzoda – dramaturg13-bet

II bob. M. SHAYXZODANING “MIRZO ULUG`BEK” DRAMASINI O`RGATISH

1-fasl. «Mirzo Ulug`bek» tragediyasini obrazlar tizimi asosida

o`rgatish.....21-bet

2-fasl.Dramatik asarlarni o`rgatishning samarali

usullari.....26-bet

Umumiy xulosalar.....42-bet

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....45-bet

K I R I S H

Maktab ta'lim tizimida dramatik asarlar salmoqli o'rin egallamasa ham, bu tipdagi asarlarni o'qitish doimo turli bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Chunki, dramatik turning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning sahnada ijro qilinishidir. Dramatik asar sahnada qo'yilmas ekan, tomoshabin aktyorning harakat va holatini kuzatib, so'zlarini tinglamas ekan, haqiqiy badiiy asar darajasiga ko'tarila olmaydi. Binobarin, drama o'zining matni bilan so'z san'atiga mansub bo'lsa, sahnada ijro etilishi jihatidan teatr san'atiga doxildir. Shu bois ham bu turdagi asarlarni o'rgatish, tahlil qilish jaryoni bir qancha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Bunday asarlarda muallif nutqining bo'lmasligi adabiyot o'qituvchisining ishini yanada og'irlashtiradi. Shu bilan birga bu turdagi asarlarni o'rganishda ifodali o'qishning o'рни alohida bo'lib, ohang, pauza, ovozning baland-pastligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Dramaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, unda badiiy hodisa hayot hodisasiga aylanadi, tinglovchining yoki tomoshabinning hissiyotlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Shu bois ham bu turni adabiyotning gultoji desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Adabiyotning boshqa turlaridan qator o'ziga xosliklari bilan farqlanuvchi bunday asarlarni maktab tizimida o'rganish o'qituvchidan ham, o'z navbatida o'quvchilardan ham izlanuvchanlikni, mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Shu sababli ham dramatik asarlarni o'qitish har doim ham metodika fanining dolzarb muammosi bo'lib kelgan, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Tadqiqotning asosiy maqsadi dramatik asarlarni o'rganish, bu jarayonda adabiyotshunoslik va metodika sohasidagi mavjud fikrlarni umumlashtirish orqali ilmiy xulosalar chiqarishga qaratilgan bo'lib, dramatik asarlarni o'qitishning samarador usullarini maktab o'qitish tizimiga joriy qilishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni o'z oldimizga qo'ydik:

- Dramatik turning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.
- Dramatik asarlarni syujet yo'nalishi bo'yicha o'rganish.

-Dramatik turdagi asarlarni til xususiyatlariga ko`ra o`rganish.

-Bu turdagi asarlar ham shaxs kamolotida asosiy tarbiya vositasi ekanligini isbotlash.

**Tadqiqot ob`ekti va predmeti.** Dramatik tur va bu janrga mansub asarlarni tahlil qilishda adabiyotshunoslikdagi, metodika sohasidagi mavjud tadqiqotlarga tayandik. Ayniqsa, Izzat Sulton, T.Boboev, Sh.Rizaev, B.To`xliiev,Q.Yo`ldoshevlarning tadqiqotlari bu jihatdan e`tiborlidir. Shuningdek,S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo`chqorovlar tomonidan tuzilgan 8- sinf maktab darsligi va metodik qo`llanmasi mazkur ishga jalb qilindi.

Ishning tuzilishi va tarkibi. Bitiruv-malakaviy ishimiz «Kirish», «Umumiy xulosalar» va «Adabiyotlar ro`yxati» bo`limlaridan tashqari «Maqsud Shayxzoda va o`zbek dramaturgiyasi», «M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug`bek» dramasini o`rgatish» deb nomlangan ikki asosiy bobdan tashkil topgan bo`lib, har bir bob o`z navbatida fasllarga bo`linadi. Birinchi bobda dramatik tur va uning janrlari haqidagi nazariy ma`lumotlarni umumlashtirish bilan birga o`zbek dramaturgiyasining yorqin namoyandasi M.Shayxzodaning XX asr o`zbek adabiyotida tutgan o`rni, dramatik janrlar taraqqiyotiga qo`shgan hissasi, asarlarining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari, tarbiyaviy ahamiyati haqida mulohazalarimizni o`rtoqlashishga harakat qildik.

Malakaviy ishning ikkinchi bobida esa M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug`bek» dramasi umumta`lim maktablarida o`qitish va bu borada amalga oshirilgan hamda amalga oshirilishi lozim bo`lgan ishlar, dramatik asarlarni o`qitishning samarali usullari masalalariga diqqat qaratdik.

Tadqiqotning hajmi qirq besh sahifani tashkil qiladi.

Dramatik asarlar, xususan, Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug`bek» tragediyasi barkamol avlod tarbiyasida munosib o`rin egallaydi. O`quvchilarimiz kuchli insoniy karakterlar bilan, kishi qalbini larzaga keltiuvchi hayotiy ziddiyatlar bilan tanishadilar. Barkamol shaxs tarbiyasida dramatik asarlar ham munosib o`rin egallashi, bola ma`naviyatining

shakllanishida bu tipdagi asarlarning o'ziga xos o'zni borligini ta'kidlar ekanmiz, bu jarayonning samaradorligini oshirishga biz yaratayotgan tadqiqot ham munosib hissa bo'lib qo'shilishiga ishonamiz.

I bob. MAQSUD SHAYXZODA VA O'ZBEK DRAMATURGIYASI

1-fasl. Dramatik tur va uning janrlari

Dramatik tur–so'z san'atining asosiy ko'rinishlaridan biri. Dramatik asarlar diologlarga asoslanadi. Ushbu turning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning sahnada ijro qilinishidir. Dramatik asar sahnada qo'yilmas ekan, tomoshabin aktyorning harakat va holatini kuzatib, so'zlarini tinglamas ekan, haqiqiy badiiy asar darajasiga ko'tarila olmaydi. Binobarin, drama o'zining matni bilan so'z san'atiga mansub bo'lsa, sahnada ijro etilishi jihatidan teatr san'atiga doxildir.

Dramatik tur o'z navbatida xilma-xil janrlarga ajratiladi: tragediya, drama, komediya, kinodramaturgiya, teleminiatiyura, intermediya.¹

Dramatik asarlar sahna muhiti bilan bog'liq bo'ladi. Dramatik turda voqealar xarakterlar faoliyati vositasida ochiladi. Unda xarakter rejissor talqini, aktyor ijrosi natijasidagina to'la ochiladi. Demak, dramatik turda xarakter faqat

¹ Salaev F.Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi.T. Yangi asr avlodi. 2010. 68-bet.

badiiy til vositasidagina emas, sahna harakati bilan ham ochiladi. Dramatik tur asarlarini faqat o`qib, tushunib, tasavvur qilibgina qolmay, ko`riladi ham. Dramatik tur asarlarida voqealar qahramonlarning dialoglari shaklida beriladi. Unda muallif nutqi, lirik chekinish, xarakteristika bo`lmaydi. Ayrim izohlarni muallif remarkalardagina bera oladi. Biroq remarka hech qachon muallif izohi bo`la olmaydi.

Dramatik turda qahramonlarning kechinmalari, voqealar ham qahramonlarning nutqi orqali beriladi. Bu narsa san`atkor imkoniyatlarini ancha cheklab qo`yadi. Dramatik turning qiyinligi ham shundadir.

Dramatik turning yana bir xususiyati – unda inson eng keskin holatlarda beriladi. Unda harakatgina emas, fikrlari, kechinmalari ham keskinlik kasb etadi. Dramatik turda voqealar har tomonlama keng ko`rsatilmaydi, xarakterlarning asosiy konfliktiga taalluqli tomonlarigina ko`rsatiladi. Taqdirlar ham dramada siqqlik bilan beriladi. Dramatik asarlarda konflikt kuchli bo`lishi kerak, to`qnashuvlar keskin bo`lishi talab etiladi. Shuning uchun ham dramatik asarlarning ta`sir kuchi zo`r bo`ladi.

Dramatik tur janrlari orasida o`zining ulug`vorligi bilan ajralib turadigan janr – tragediyadir. Unda insonning kuchli ehtirolari, katta qurbonlar talab qiluvchi yuksak maqsad yo`lidagi kurash va intilishlari tasvirlanadi. Shuning uchun ham yuksak ma`naviy qudratga ega bo`lgan shaxslargina tragediya qahramonlari bo`la oladilar. Bu kabi qahramonlar o`zlari tanlagan yo`lning qanchalik fojialiligini bilsalar ham, o`z yo`llaridan qaytmaydilar, qat`iyatli shaxslar bo`ladilar. Ular oliy niyat, ezgulik uchun kurash yo`lida halok bo`ladilar. Shuning uchun ham ularning o`limi kishini umidsizlantirmaydi.

Tragediyaning oxiri fojia bir yoki bir necha qahramonning halokati bilan tugaydi. Lekin doimo o`lim bo`lishi shart emas. Qahramon taqdiri biror dahshatli yakun bilan tugashi ham mumkin. Masalan, Edip ko`zini ko`r qilib, mamlakatdan bosh olib ketadi, Medeya o`z ikki farzandini o`ldirib, osmonga uchib ketadi.

Tragediya asosini t r a g i k konflikt tashkil etadi. Bunda ikki baquvvat ijtimoiy kuch kurashadi. Tragik konflikt to`qnashuvchi kuchlarning teng ekanligidan kelib chiqadi. Bunda ulardan birining halokati aniq bo`lib qoladi. Tragik kolliziya asarga kuch bag'ishlaydi. Qahramon ikki o`t orasida qoladi. Har ikki yo`l ham uning uchun mashaqqatli. Shu yo`llardan birini – eng qiyinini tanlab oladi. Bu yo`lning qanchalik xatarliligini bilsa ham, qahramon o`zi tanlagan yo`ldan qaytmaydi. Uning fojiali taqdiri esa xarakter taraqqiyotining zaruriy natijasi sifatida kelib chiqadi.

Tragediya Yunonistonda xalqning Dionis bayramlaridagi o`yinlaridan kelib chiqqan. Antik tragediya o`ziga xos bo`lib, u prolog, peripetiya (burilish, kul`minatsiya), echimdan va xorning yakunlovchi qo`shig'idan iborat bo`ladi. Antik tragediyada xor voqealarga bevosita ishtirok etmasdan, qahramonlar taqdiriga munosabat bildirish, voqealarni hikoya qilish, ularga izoh berish vazifasini bajargan. Keyinchalik esa xorning ahamiyati tushib, u yo`qola borgan.

Qadimgi tragediyada tragik kolliziyaning keltirib chiqargan sabablar shu kolliziyaning o`zi va uning qanday rivojlanishiga katta e`tibor berilardi. Keyinchalik adabiyotning hayotga yaqinlashishi natijasida tragik xarakterlarning alohida bo`rttirib va o`ziga xoslashtirib berilishi sababli tragik kolliziya sabablarini izohlashga ehtiyoj qolmaydi. Uning vazifasi to`la ravishda xarakterlarning to`qnashuvlariga yuklanadi.

Shekspir tragediyani ijtimoiy va psxologik jihatdan chuqurlashtirdi, unga kulgililik, tubanlik unsurlarini ham olib kirdi. Shiller esa tragediyani siyosiy an'analar bilan boyitdi, uni inqilobiy isyonkorlik g'oyalari tarig'ibotchisiga aylantirdi. Pushkin esa «Boris Godunov»da cheklanmagan saltanat uchun kurashgan, o`zi tanlagan yo`lning xatarli ekanligini his qilib, o`zining ojjizliklarini ham anglab etgan hukmdor fojiasini ko`rsatgan. Biroq V.Belinskiy aytganidek, bu asar ko`proq epiklik kasb etgan. «Xasis ritsar», «Motsart va Saleri» asarlari bilan Pushkin yangicha kichik tragediya janriga

asos solgan. Bu asarlarning birinchisida xasislik, ikkinchisida hasad, jinoyatkorona ehtirolarning halokatli oqibatlarga olib kelishi ko`rsatiladi. O`zbek adabiyotida tragik konfliktga ega bo`lgan asarlar anchagina. Masalan, «Xolisxon», «O`tkan kunlar», «Sarob», «Qutlug` qon», «Nurxon», «Alisher Navoiy», «Muqanna», «Tohir va Zuhra» va boshqalar. Biroq sof tragediya namunasi M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug`bek» asaridir.

Komediya janri tragediyadan farqli o`laroq, engil voqealarga quriladi. Komediya eskilik, illat, bid`at tanqid qilinadi, hajv etiladi, anglashilmovchiliklar hal etiladi. Komediya hayotning yumoristik yoki hajviy tasvirini beradi.

Komediya ham qadimgi Yunonda tragediyadan keyinroq rivojlangan. Komediyaning otasi Aristofandir. Uning komediyalari o`zining siyosiy o`tkirliги, dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Drama dramatik turga mansub janrlardan biri. Dramaning tasvir ob`ekti butun hayot, uning hamma katta-kichik hodisa va muammolari, inson boshidan kechiradigan his-tuyg`u, fikr va kechinmalardir. Bu janrning eng muhim xususiyati ziddiyatning fojiali, halokatli xarakterga ega emasligi, personajlar taqdirida yuzaga kelgan murakkab muammolarning nisbatan osonlik, nekinlik bilan hal etilishidir. K.Yashinning «Nomus va muhabbat», Uyg`unning «Parvona», O`.Umarbekovning «Qiyomat qarz» kabi asarlari uchun ana shunday fojia darajasiga etmagan hayotiy murakkabliklarni badiiy ifodalash xarakterlidir.

Drama asosida o`tkir xarakterlar va kuchli ehtirolarning shiddatli to`qnashuvi yotadi. Drama ishtirok etuvchi shaxslarning harakati va qarshi harakatlaridan yasaladi, «unda hamma narsa bir maqsadga, bir mo`ljalgacha qarab yo`nalishi kerak,- deydi V.Belinskiy. Ikki kishi o`rtasidagi har qanday bahs, munozara drama bo`lavermaydi. Bahslashuvchilar bir-birlaridan ustun chiqishi uchun, bir-birlarining xarakterlarining qanday bo`lmasin biron tomonini bosib qo`yishga yoki ruhning zaif tomonlarini chertib qo`yishga urinsalar va bu narsa

orqali ularning xarakterlari ochilsa, nihoyat bahslashuvchi ularni bir-birlariga nisbatan yangi munosabatda bo'lishga majbur qilsa, bu narsa drama deb atalishi mumkin» (V.Belinskiy).

Dramada konfliktning keskinligi, xarakter qirralarining o'tkirligi, personajlar nutqining ifodaliligiga katta e'tibor beriladi. Personaj nutqi aytilgan payt, vaziyat va holat bilan bog'liq bo'lishi kerak, personajning xarakterini yorqin ifodalashi va maqsadga aniq borib tegishi zarur. O'tkir ijtimoiy muammolar, murakkab ijtimoiy, psixologik ziddiyatlar drama materialidir. Dramada inson uchun ezgu va yaqin bo'lgan qadriyatlarning xavf ostida qolgan holatlari berilib, bu narsa «yuqori darajada» dramatismni keltirib chiqaradi.

Drama tragediya bilan komediya o'rtasidagi hodisa bo'lib, unda har ikki janrning xususiyatlari mujassamlangan. Drama tragediyadan engilroq, komediyaga nisbatan jiddiyoqdir. Unda tragediyaga qaraganda kolliziya kuchli bo'ladi, lekin fojia bo'lishi shart emas, unda komediyadagi kabi engil, kulgili lahzalar bo'lishi mumkin. Lekin dramaning kulgili bo'lishi shart emas. Dramada insonning jiddiy hayot sinovlari ko'rsatiladi. Unda kechinmalar keskin qilib qo'yiladi. Komediya taqdirlar «baxtsizlikdan baxtga», tragediyada «baxtdan baxtsizlikka qarab» rivojlansa, dramada esa taqdirlarning echimi oldindan belgilanmaydi, unda ko'pincha qahramonlarning keyingi taqdiri uzil-kesil hal qilinmay, ochiq qoladi.

Drama tragediya va komediya keyinroq shakllangan bo'lib, XVIII asrga kelib janr holiga kelgan. Lessingning «Emiliya Galotti», Shillerning «Makr va muhabbat» dramalari dramaning eng yaxshi namunalaridir. Bundan tashqari, janrning oilaviy-maishiy, tarixiy, qahramonlik, falsafiy, psixologik xillari ham mavjud. XIX asrga kelib drama janri g'oyaviy-badiiy yuksaklikka ko'tarildi, unga ijtimoiy fosh etuvchi xususiyatlar kirib keldi.

O'zbek dramasi asoschilarining boshida Behbudiy, A.Qodiriy, Hamza turadilar. Behbudiyning «Padarkush», A.Qodiriyning «Baxtsiz kuyov»,

Hamzaning «Zaharli hayot» asarlari o`zbek adabiyotida yaratilgan ilk drama namunalari. Keyingi bosqichlarda Hamzaning «Paranji sirlari», Cho`lponning «Yorqinoy», U.Ismoilovning «Rustam», K.Yashinning «Gulsara», H.Olimjonning «Muqanna», Uyg'un va I.Sultonning «Imon», S.Azimovning «Qonli sarob», O'.Umarbekovning «Qiyomat qarz» kabi asarlari janrning sara namunalari hisoblanadi. Hozirda o`zbek adabiyotida M.Boboev, Sh.Boshbekov, E.Vohidov, A.Ibrohimovlar drama sohasida jiddiy izlanishlar qilmoqdalar.

2-fasl. M.Shayxzoda – dramaturg

Shunday iste'dod egalari bo'lishadiki, ular o'zlari barhayotlik davridayoq tengdoshlari va zamondoshlarining hurmat-e'tiborini qozonish baxtiga muyassar bo'lishadi. Buning ustiga o'z zamondosh ustozlari e'zozidan ham bahra olishga ulgiradilar. Ijoddagi bu xil holat faqat bir kishining omadi bo'lib qolmay, balki butun bir davr adabiy muhitining ham omadi sanaladi. XX asr o`zbek adabiyotida mana shu xil talant egalari ko`p bo`ldi. Shulardan biri lirik shoir va dramaturg, taniqli adabiyotshunos Maqsud Shayxzodadir.

Maqsud Shayxzoda o`zbek adabiyotining rivojlanishiga munosib xissa qo`shgan ulkan so`z san'atkori. Uning baland qoyalardan oqayotgan sharsharadek jo`shqin she'riyati, mavjlanib oqayotgan katta daryodek

xayotbaxsh dostonlari, shifobaxsh buloqlar singari ta`mi tilingizda qoladigan dramalari o`zbek adabiyoti xazinasidan munosib o`rin olgan.

Maqsud Mausumbek o`g`li Shayxzoda 1908-yil 7-noyabrda Ozarboyjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida shifokor oilasida tug`ildi. Otasi Mausumbek o`z zamonasining ilg`or ziyolisi, shifokori bo`lgan, el-yurt orasida katta obro`ga ega kishi edi. Ayni paytda adabiyotni va san`atni sevadigan, tarix va falsafani yaxshi bilgan inson sifatida uyida ilmiy va adabiy anjumanlar ko`p bo`lardi. Maqsudning tarbiyasida otasining ta`siri katta bo`ldi. O`zining hayot yo`li to`g`risida yozgan bir maqolasida otasining kelajagiga ijobiy ta`sirini minnatdorlik bilan quyidagicha eslaydi: "Agar she`r aytish qofiya topishdan boshlanadigan bo`lsa, men besh yasharligimdan she`r to`qiganman. Otam ishdan qaytganda mahallamizdagi bolalarni to`plab, bitta so`z aytardi-da, unga qofiya topishni so`rardi. Biz bolalar qofiyadosh so`zlarni bir-birimizga gal bermay chuvillashib aytardik. Menda she`rga havas ana shunday tug`ilgan. Hali alifboni egallamasdan oldin she`r yaratganman."

Shayxzoda Oqtoshdagi maktablardan birida savodini chiqardi. Zehni tezligi, iktidori yaxshiligi tufayli Bokudagi dorilmuallimin bilim yurtiga sirtidan o`qishga kiradi. 1925-yildan boshlab Darband shahriga ishga yuboriladi. 1927- yilda aksilinqilobiy tashkilot a`zosi sifatida qamoqqa olinib, 1928-yilning fevralida Toshkentga surgun qilinadi. Shundan boshlab, Maksud Shayxzoda o`zbek xalqining ozar o`g`loni bo`lib qoldi. U Toshkentga kelgach, o`zbek tilini qunt bilan o`rgandi va tez orada shoir sifatida taniqli bo`ldi.

Maqsud Toshkentga kelib, dastlab Narimonov nomidagi texnikumda muallimlik qiladi. Keyin "Sharq haqiqati", gazetasida ishlaydi. Gazetalar uni ijodiy muhit bilan yaqinlashtirdi, ijodiy do`stlar orttirdi. Toshkentda yashayotgan shoirning birinchi she`ri 1929-yilda "Sharq haqiqati" gazetasida bosilib chiqdi. Shundan so`ng u matbuotda tez-tez ko`rina boshlaydi. Biroq

shoirning o`zi bu davrdagi she`rlariga chinakam poeziya namunasi sifatida qaramaydi. "Shoirning hamma yozgan asarlari bir darajada yaxshi bo`lishi amri maholdir"- deb bilgan ijodkor ularga shunchaki mashq sifatida qaraydi. Umrining ilk yillaridan boshlab qoniga, qalbiga, fikriga singib ketgan she`rga muxabbat tez orada o`z samarasini bera boshladi. Uninig she`riy mahorati o`sdi, ilk she`rlaridagi chaqiriqlar, nidolar kamaydi. 1932-yilda shoirning birinchi she`riy to`plami "O`n she`r" nomi bilan bosilib chiqdi. Shundan so`ng birin-ketin "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934) "Jumhuriyat" (1935) "Yangi devon" (1937) kabi to`plamlari bosildi va shoirga katta shuhrat keltirdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida uning "Kurash nechun?", "Jang va qo`shiq", "Ko`ngil deydiki", to`plamlari e`lon qilindi. 1944-yilda tarixga murojaat qilib, o`zbek xalqining atanparvar o`g`loniga bag`ishlaab "Jalolidin Manguberdi" dramasi yaratdi. 1945-yilda esa "O`n besh yilning daftari" kitobini nashr ettirdi. Shundan keyin birin-ketin M.Shayxzodaning "Yillar va yo`llar", "Yurt she`rlari", "Olqishlarim", "Zamon torlari", "Shu`la", "Sozim", "Xiyobon" singari she`riy to`plamlari kitobxonalar qo`liga tegdi. 1958-yilda "Toshkentnoma" dostonini yozdi. Bu orada "Mirzo Ulugbek" tarixiy dramasi ham yaratdi. Keyinchalik, arxividan "Abu Rayuon Beruniy" dramasi eskizlari topildi. Afsuski, shoir ijodining boshlaganiga ellik yil to`lishi munosabati bilan tartib berayotgan "Yarim asr devoni"ni tugata olmay, 1968-yilning 19-fevralida olamdan o`tdi. Alloma shoirmiz ijodining boshlaridayoq, "Men yashamoq istayman uch raqamli bir sonda", ya`ni 100 yoshga kirishini orzu qilgandi.

Shayxzodaning ijodidagi oddiy she`rdan dostonigacha, eng kichik balladasidan yirik she`riy dramasi qadar har bir asari falsafiy mushohadaning teranligi, tuygularning samimiyligi-yu, fikrning yuksak parvozi, muammoning dolzarbligi-yu, echimning mantiqiy izchilligi, uslubning muayyanligi-yu ohangning ko`tarinkiligi kabi o`ziga xos xususiyatlari va hech kimga o`xshamaydigan noyob ongi bilan ajralib turadi. Shoirning lirik

merosiga chuqur razm solgan kishi uning qariyb barcha sheʼrlari insoni ulugʻlash maqsadida yaratilganiga toʻla ishonch hosil qiladi. Zero, Shayxzoda oʻzining "Sheʼr va shoir" manzumasida "Inson sharofati sheʼrlarimga mavzu" - deydi, chunki "u bilan musharraf qoʻshiq va yozuv":

Odamning, olamning husnin olqishlay

Ularga sevgimning vaznin bagʻishlay.

Ushbu satrlar M.Shayxzodaning ijodkor sifatidagi mustahkam eʼtiqodini anglatib turibdi.

Maqsud Shayxzodaning dramaturgiyadagi ilk kadami 20-yillarda boshlangan. Urush yillarida tarixiy mavzudagi "Jaloliddin Manguberdi" dramasini yaratdi. Jaloliddin Manguberdi mavzusi turkiy xalqlar adabiyotining doimiy murojaat qilingan mavzularidan hisoblanadi. Besh pardalik bu tarixiy dramada dramaturg Sulton Muhammad Aloviddin Xorazmshohning oʻgʻli Jaloliddinning moʻgʻul bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashini qalamga olgan. Drama 1944-yilda yozilgan va sahnalashtirilgan. Voqealar XII asrning 1-choragida Xorazm va uning atroflarida boʻlib oʻtadi. Dramada Jaloliddindan tashqari otasi Xorazmshoh, singlisi Sultonbegim, Xoʻjand hokimi, xalq lashkarboshisi Temur Malik, Samarqand hokimi, Xorazmshohning kuyovi sotqin Amir Badriddin, tarixchi Muxammad Nasafiy kabilarning xarakteri ham yaratiladi. Yurtini jon-dilida sevgan valiahd Jaloliddin moʻgʻullar Xorazmga hujum qilganlarida otasidan qoʻshinni ixtiyoriga berishni soʻraydi. Ammo sotqin Amir Badriddinning qutqusiga uchgan qoʻrqq Xorazmshoh uni shohlikni qoʻlga olmoqchi deb oʻylab, oʻgʻlini valiahdlikdan mahrum etadi. Jaloliddin uchun esa tojdan koʻra Vatan aʼlo edi!

Bundan keyin Shayxzoda tariximizning yana bir yorugʻ yulduzi Mirzo Ulugʻbek faoliyatini chuqur oʻrganishga kirishdi. Ulugʻbek merosini va uning toʻgʻrisidagi tarixiy asarlarni oʻrgangani sayin yangi asarning loyihasi

shakllana boshladi. Besh parda yigirma ikki ko`rinishdan iborat bu tarixiy fojea o`zbek adabiyotidagi eng etuk tragediya hisoblanadi.

O`zbek xalqi tarixining yorug` yulduzi, buyuk munajjim, ma`rifaparvar olim Muhammad Tarag`ay ibn Shouruh – Ulug`bekka bag`ishlangan bu drama 1964-yilda yaratilgan. Ulug`bek o`n besh yoshidan boshlab qirq yil saltanatni boshqardi, o`z qo`l ostidagi mamlakatda nisbatan osoyishtalik va adolatni barqaror etdi. O`zbek xalqi tarixida Ulug`bek faqat "xaloyiqning ahvolini" yaxshilashni burchi deb bilgan fuqaroparvar podshohgina emas, ayni paytda "shohlikni ma`rifatga dastyor" qilishni orzu etgan mutafakkir hamdir. Mana shu istagini amalga oshirishda Ulug`bek o`z zamonasi bilan to`qnash keldi. Mutaasib dindorlar Ulug`bekning koinotni tadqiq etishini "kofirlik" deb bildilar va unga qarshi chiqdilar. U o`z qo`li bilan rasadxona qurdirdi. 1002 ta yulduzning joylashish o`mini belgilab chiqdi, zij tuzdi, o`nlab iqtidorli va fidoyi shogirdlar tayyorladi. Ma`lum bo`lishicha, Ulug`bek tayyorlagan jadval G.Galileyning jadvalidan sekundlarga farq qilar ekan, xolos. Ulug`bek o`zi olim bo`lganligidan ilmning qudratiga yuqori baho beradi.

Ulug`bek taxt tashvishlari bilan cheklanib qolmasdan ilm va ijod ahllariga ham ijod uchun sharoit yaratib bergan. Tragediyada Sakkokiy obrazi berilgan bo`lib, bu shoir ijodi Ulug`bek davrida yuksaldi. U she`rlar yozish bilan birga Ulug`bekka bag`ishlab, to`rtta qasida yozgan. Qasidalaridan birida shunday yozadi:

Falak yillar kerak sayr etsa-yu keltirsa ilkiga

Meningdek shoiri turkiy saningdek shohi dononi.

Ulug`bek asarda mehribon ota sifatida ham ko`rinadi. Uning uch o`g`li bulib, Abdurahmon ismli o`g`li o`n ikki yoshida o`lgan. Qolganlarining kattasi Abdullatif, kichigi Abdullaziz edi. Ulug`bek jismoniy majruh bo`lgan Abdulazizga ko`proq mehr ko`rsatar, uning ko`nglini ko`tarishga harakat qilar edi. Sayyid Obid kabi Ulug`bekning dushmanlari mana shu masalada ham foydalanadilar. Abdullatifni Ulug`bekka qarshi qo`yadilar.

Abdullatifning xudbinligi, otasi o'lmay turib taxtga o'tirishga bo'lgan ishtiyoqi, o'zicha soliqlar undirishi otasi bilan to'qnashishga sabab bo'ladi. Ulug'bek uni taxt vorisligidan mahrum qiladi. Shundan boshlab Ulug'bek va Abdullatif o'rtasidagi munosabatlar dushmanlik ruhini oladi.

Firuzaga tuhmat uyushtirish, otasiga qarshi qo'zg'olon ko'tarish, ota taxtini egallash, nihoyat, otasini o'limga hukm qilish Abdullatifning naqadar tuban shaxs ekanini ko'rsatadi.

Ulug'bek xarakterini tushuntirishda o'qituvchi quyidagi masalaga ham to'xtalib o'tishi zarur. Tragediyadagi Sakkokiy, Berdiyor, Shayxulislom Burhoniddin, Firuza, Ali Qushchi singari obrazlar Ulug'bek xarakterini to'ldirishga,, uning xarakteridagi ma'lum qirralarni ochishga xizmat qilgan.

Sayid Obid, Abdullatif, Gavharshodbegim, Ko'r qalandar kabi obrazlar salbiy obrazlar bo'lib, ularning barcha xarakatlari Ulug'bekka qaratilgandir.

Maqsud Shayxzoda xarakterlarni ochish uchun qarama-qarshilikning xarakterlararo kurash shaklini tanlagan. Ulug'bek, Ali Qushchi, Sakkokiy singari ijobiy xarakterlar bilan Xo'ja Axror, Sayid Obid, Abdullatif, Qozi Miskin singari salbiy xarakterlar o'rtasidagi kurash tragediyada dramatik harakatni yuzaga keltiradi.

Tragediyadagi Temur maqbarasi manzarasi asar muvaffaqiyatini ta'minlagan jixatlardan biridir. Qahramonning ruh bilan uchrashuvi kitobxon yodiga darhol «Hamlet» tragediyasini keltiradi... Ammo M.Shayxzoda bu detaldan yangicha sharoitda, yangi maqsadda foydalangan. Temur monologida buni ravshan ko'ra olamiz:

Yer yuzida buzilganga o'xshar intizom.

Avlodimdan sohibqiron chiqolgan kim bor?

Men to'ldirgan ummonlarning savlati qani?

Qani o'shal qutiruvchi yo'ldor dengizlar?

Ummonlarning o'rnida men ko'raman

Bir hovuzki, kaftimga xam qiladi kamlik.
Men oltmish yil ot belidan tushmadim, toki,
Illabad avlodlarim bo'lsin jahongir.
Har kun besh bor aytar edim:butun yer yuzi
Torlik qilar:sig`dirolmas ikki podshoni,
Ammo bugun ko`ramanki ellik shohga ham
Kengliq qilar, ortib qolar shu latta dunyo...
O`g`lim, sening irodangni eb qo`ydi kitob,
Sipohiylik rasmlarin qilmayin pisand,
Yulduzlarning qo`shiniga bo`lding farmondor.
Osmoniy o`lkalarni olmoqchi bo`lib,
erdagi naqd diyoringni boy berding qo`ldan.

Ulug`bekning haqiqiy insonparvar sifatidagi qiyofasi uning taxtdan iste`fo berishi sahnasida yorqin ifodalangan.U dushman qo`shini bilan kurashda ahvoli tang bo`lgach, o`z jonini qutqarish uchun emas, balki mamlakat fuqarosining tinchligini o`ylab Abdullatif odamlari oldiga quyidagi shartlarga ko`nishsagina, taxtdan voz kechishni e`lon qiladi: avvalo, mamlakatda fitna-yu fasod to`xtatilishi, qo`ni-qo`shni o`lkalarga bosqinchilik qilib temuriylar nasliga qarg`ish va lan`at keltirmaslik, o`z xizmatidagi arboblardan qasos olinmaslik, haramdagi ahli ayolning iffati va izzatiga g`ubor yuqtirmaslik, madrasa va rasadxonalarga zavol etkazmaslik, kutubxona va kitoblarni omonat saqlashga qasam ichishlarini talab qiladi.

Adib tasvirida tarixiy haqiqat va uning badiiy ifodasi juda ishonarli chiqqan. Ulug`bek davrida Amir Temur shakllantigan juda kuchli davlat parchalanib ketdi. Temuriyzodalar bobolari qoldirgan vasiyatlarga amal qilmadilar. Toju-taxt talashishlar oqibatida mamlakat inqirozga yuz tutdi.

Fojea Mirzo Ulug`bekning o`limi bilan tugaydi, biroq o`quvchi yoki tomoshabin bu manzaralardan tushkunlikka tushmaydi. Aksincha, buyuk olim ishlarining davom etishiga ishonadi. Abdullatif kabi padarkush g`alamislarning

umri qisqa ekanligiga imon keltiradi. Dramada adibning sahna asari yaratish bobidagi mahorati tufayli Ulug`bek yashagan davr kishilar hayoti aniq, jonli, jozibador, eng muhimi ishonarli chiqqan. Bu asardagi har bir so`zga, manzaraga, sahna jihozlariga ishonasiz, uni qalban his etasiz, go`yo o`zingizni shu voqealar ichida yurgandek sezasiz. Shu ma`noda «Mirzo Ulug`bek» dramasini Vatanimiz tarixini eng xasratli davridan hikoya qiluvchi mukammal sahna asari sifatida har qancha o`qib o`rgansak arziydi. Ushbu sahna durdonasining xali-hanuz sahnadan tushmay kelayotgani uning asosida yaratilgan «Ulug`bek yulduzi» kinofilmi (rejissor L.Fayzullaev)ning Vatanimiz va Xorij ekranlarida qayta-qayta namoyish etilayotgani fikrimiz isbotidir.

I bob. M. SHAYXZODANING “MIRZO ULUG`BEK” DRAMASINI O`RGATISH

1-fasl. «Mirzo Ulug`bek» tragediyasini obrazlar tizimi asosida o`rgatish

Badiiy ijodning murakkab turlaridan biri bo`lgan dramaturgiyada inson xarakteri va taqdirini yaratish asosiy vazifa hisoblanadi. Odamlar o`rtasidagi o`zaro munosabat, insonning o`y-orzulari, niyatlariga erishish uchun olib borgan kurashlari, bu kurashdagi g`alabalari, muvaffaqiyatsizliklari, baxtli va baxtsizlik onlarida ham inson xayolida, qalbida kechadigan hayajonlar, his-tuyg`ular shunchalik rang-barang bo`ladiki, ularni kundalik hayotda turli-tuman tirikchilik tashvishlari bilan bo`lib, to`la anglab etolmaymiz. San`at asari, xususan, sahna asarlari inson taqdiri va xarakterida kechadigan barcha

ziddiyatlarni, chigalliklarni tomoshabin ko`z oldida badiiy gavdalantirib bera oladi.

M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug`bek»,» p`esasini sinchiklab tahlildan o`tkazsak, dramaturgning inson xarakteri va taqdirini sahna tili bilan badiiy ifodalab berishda katta mahorat va tajribaga ega ekanligining guvohi bo`lamiz. Adabiyot va san`atda qolipga solingan tayyor andozalar yo`q. Har bir san`atkorning o`z andozasi bo`ladi. Yana ham to`g`rirog`i, voqea-hodisalarning ko`lami va xarakteri undan o`ziga xos yo`l tanlashni, faqat uning o`zigagina xos andoza qo`llashni talab qiladi. Natijada uning butun mushohada va fantaziyasi o`z andozasining aks sadosi sifatida maydonga chiqadi.

Maqsud Shayxzoda san`at asarining xususiyatlarini nozik his qiladi. Birinchidan, har bir yuksak badiiy asarda original biror g`oya aks etgan bo`lishi kerak. Tomoshabinning diqqatini sahnaga tortish, spektakl` oxirigacha mahkam ushlab turish, tomoshabinni hayot haqida o`ylashga majbur etish oson ish emas. Buning uchun asarda originallik bo`lishi kerak. Ikkinchidan, asarning asosiy obrazlari yuksak fazilatlar bilan yorqin ajralib turishi lozim, boshqacha aytganda, tomoshabin sahnada aql-idrokda, matonatda, mehnatga munosabatda, tadbirkorlikda o`zidan yuksakroq inson siymosini ko`rishi zarur. Shundagina obrazlar tomoshabin xotirasida uzoq saqlanadi va uning uchun yashash namunasi bo`lib qoladi.

«Mirzo Uldug`bek» p`esasi ko`p qatlamli, ko`p qirrali, chuqur mohiyatli romantik kolliziyalarga boy asardir. Bu asarda yaratilgan Mirzo Ulug`bek obrazi temir irodali, yuksak e`tiqodli shaxs timsoli.

Inson va jamiyat orasidagi masala ancha murakkab va ko`p qirralidir. Bu erda shaxsiy manfaatlarning ijtimoiy manfaatlarga mos kelishi yoki ular o`rtasida mavjud bo`ladigan ziddiyatlarni keltirib chiqargan sabablar va ularni bartaraf etish yo`llari va boshqa shu singari katta muammolar borki, mazkur mavzuni yoritayotganda ularni chetlab o`tib bo`lmaydi.

M.Shayxzoda hayotiy hodisalarni sinchiklab kuzatar ekan, inson taqdirida ro'y beradigan keskin burilish nuqtalari va ularning natijalarini ko'ra biladi hamda ularni o'z asarining asosiy mavzusi qilib tanlaydi. Tarixdan ma'lumki, temuriylar sulolasining eng mashhur vakillaridan biri bo'lgan Mirzo Ulug'bekning taqdiri hozirgacha insoniyat olamini hayratga solib keladi. Tadbirkor davlat arbobi, adolatli shoh, ilm-fanda yuksak cho'qqilarni egallagan inson, mislsiz ilmiy qobiliyat Mirzo Ulug'bek shaxsida mujassamlanishi hayratlanarli hol. Shundan bo'lsa kerak, sultonlar orasida uni ulkan daho sifatida baholaydi.

Mirzo Ulug'bek – Amir Temurning suyuqli nabirasi, ya'ni to'rtinchi o'g'li Shohruhmirzoning farzandi, u bobosi Temurning barcha yurishlarida ishtirok etgan. Buyuk olim va hukumdor haqida tarixiy ma'lumotlarni ko'plab keltirish mumkin. Mirzo Ulug'bek hayotida ko'p voqealar yuz bergan. U oliy hukumdor, buyuk olim sifatida ko'p narsalarni o'z boshidan kechirgan. Bularni besh pardali tarixiy fojeaga sig'dirib bo'lmasligini bilgan M.Shayxzoda ushbu asarga asosan ikki yo'nalishdagi voqealarni, ya'ni saroy ixtiloflari va buyuk olim olib borgan ilmiy izlanishlarni yoritishga jazm qilgan. Adib Mirzo Ulug'bekni bir tomondan, qattiqqo'l butun Xurosonni o'z qo'lida saqlab qolish uchun har qanday chorani ko'rishga tayyor hukmdor sifatida, ikkinchi tomondan, ilm-fanning jonkuyari, jahonshumul kashfiyotlar qilgan olim, fan ahlini jonidan ortiq ko'radigan, biroq saroydagi fisq-fasod, ig'vo ishlari oldida ojiz bir inson sifatida tasvirlaydi.

Maqsud Shayxzoda «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi bilan o'zbek adabiyotida tragediya janrining yuksak namunasini yaratdi. Ulug'bek xarakterini va u yashagan davr sharoitini dramatik harakatga boy mazmun vositasida ko'rsatib berdi.

Tarixiy faktlarni mukammal bilish, ulardan xarakter qirralarini ochishda moslab foydalanish, badiiy to'qima me'yorini saqlash, romantik ko'tarinkilikni, xarakterni ochishga bo'ysundirish, Shekspir tragediyalaridan

oziqlanish va nihoyat, badiiy tasvir vositalarini, xarakterni ochishga qaratish tragediya muvaffaqiyatlarini ta'minlagan omillardir.

Asarda ma'rifatni ulug'lash, xalqparvarlik, ezgulik tantanasiga ishonch singari g'oyalar ilgari surilgan. M.Shayxzoda ana shu g'oyalarni amalga oshirish uchun o'zbek xalqi tarixida muhim rol o'ynagan olim, mutafakkir, adolatli hukmdor Mirzo Ulug'bek hayotining so'nggi yillarida ro'y bergan shiddatli va dramaturgiyaga boy tarixiy voqealarni asarga mavzu qilib olgan.

Muallifning g'oyaviy niyati asardagi tarixiy va to'qima obrazlar vositasida amalga oshirilgan. Ulug'bek, Abdullatif, Gavharshodbegim, Ali Qushchi, Sakkokiy, Shayxulislom Burhoniddin, Xo'ja Ahror, Sa'diy, Obid, Abbos, Abdurazzoq Samarqandiy, Qozi miskin obrazlari tarixiy obrazlardir.

Tragediyadagi Feruza, Piri Zindoniy, Bobo Kayfiy, Otamurod, Berdiyor, Ko'r qalandar obrazlari to'qima obrazlardir.

Fajeadagi obrazlar markazida Ulug'bek xarakteri turadi. O'qituvchi Ulug'bek xarakteridagi xususiyatlarni sanab, ularni tushuntirib beradi. Ulug'bek xarakteridagi asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat: ilm bilan shug'ullanish, xurofot va bid'atga qarshi kurashish, adabiyot va san'atga mehr bilan qarash, yoshlar sevgisiga rahnomolik, taxt shuhratini saqlashga intilish va boshqalar.

Ulug'bekning tarix oldidagi katta xizmati uning hukmdorlik faoliyatidan ko'ra ilm-fanni rivojlantirishidir. Shu ma'noda Ulug'bekning fan-madaniyat ravnaqi yo'lidagi xizmatlarining zulm-zo'ravonlik faoliyatidan ustun ekanligiga shubha qolmaydi. M.Shayxzoda Ulug'bek shaxsidagi shu xususiyatlarni teran anglagan holda o'quvchi diqqatini ko'proq uning ma'rifatparvarlik faoliyatiga qaratadi. Buni dramadagi Mirzo Ulug'bek so'zlari bilan ham anglasa bo'ladi:

Ma'rifatning dargohiga qo'ydim ixlosim.

Og'ir bo'ldi qismat menga ortgan vazifa.

Men, sultonlar o'rtasida bo'ldim donishmand,

Donishmandlar tepasida sulton sanaldim.

Ma`rifatni hukumatga qilib rahnamo,

Bu o`lkaning erida ham yulduzlar yoqdim.

Agar Ulug`bekning «Ma`rifatni hukumatga qilib rahnamo, Bu o`lkaning erida ham yulduzlar yoqdim», - degan so`zlariga e`tibor beradigan bo`lsak, uning davlatchilik faoliyati ma`rifatchilik asosiga qurilganiga amin bo`lamiz.

Dramada Ulug`bek qiyofasi uning ko`proq asardagi boshqa obrazlar orqali ochilgan, masalan, Ali Qushchi, Sakkokiy, Shayxulislom Burhoniddin, Chin, Hind, Farang, Misr, Rus elchilari bilan bo`lgan muloqotlarida ilm-fan xomiysi, buyuk olim, ma`rifat fidoiysi kabi hislatlari namoyon bo`lsa, Abdullatif mirzo, uning mahrami Abbos, Qozi Miskin kabi saltanat dushmanlari ig`volariga bo`lgan munosabatida mutaassiblikka qarshi ashaddiy kurashgan inson sifatidagi xarakteri ochilgan.

Mirzo Ulug`bek hukmdor, katta saltanat egasi bo`lganiga qaramay, avvalo, insoniy fazilatlardan begona bo`lmagan, o`z farzandiga mehribon ota. Shundan bo`lsa kerak, saltanat, ilm-fan ishlari bilan mashg`ul bo`lib, o`z o`g`lini unga dushman sifatida qayrab, uni avvalo, taxtdan, so`ng hayotdan mahrum qilish uchun amalga oshirilgan fitnalardan bexabar bo`lib g`aflatda qoladi. O`g`li Abdullatif otasiga qarshi isyon ko`taradi va uning buyrug`i bilan Ulug`bek qatl ettiriladi.

2-fasl. Dramatik asarlarni o`rgatishning samarali usullari

Dramaturg qahramonlarning harakatini ochib berish uchun zarur bo'lgan voqea-hodisalarnigina ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, tanlab olingan voqea-hodisalar dramada ishtirok etuvchi shaxslar o'rtasidagi qarama-qarshilikni asoslash uchun xizmat etadi. Tasvirlangan masalaga bevosita aloqasi bo'lmagan yoki harakat rivojini susaytiruvchi hayotiy dalillar olinmaydi. Shuning uchun ham dramada biror hayotiy voqea boshdan-oyoq batafsil tasvirlanmaydi, unda inson hayotining eng muhim nuqtalari aks ettiriladi, ya'ni dramaturg o'z g'oyaviy niyatlariga qarab butun voqealarni shunday markazlashtiradiki, tomoshabin katta-katta voqealar mohiyatini kichkina shtrixlardan ham anglab oladi.

Drama syujeti o'zining rivojlanish tezligi va g'oyat siqirligi bilan xarakterlidir. Dramatik asar syujeti o'ziga xos bu xususiyati bilan nasriy asar syujetidan farq qiladi. Shuningdek, dramatik asar nasriy va lirik asardan teatr uchun yoziladiganligi va sahnada ijro etilishi bilan ham farq qiladi. Dramatik asar syujeti hayotiy qarama-qarshiliklar asosida q'uriladi, hayotiy kurashlarni aks ettirish o'ringa qo'yiladi.

Yuqorida qayd qilingan xususiyatlariga qarab maktabda dramatik asarni o'rganish usullari belgilanadi. O'zbek adabiyotining atoqli vakili Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» fojiaviy asari endilikda o'rta maktab adabiyot dasturidan mustahkam o'rin olgan asarlardan biri bo'lib qoldi. Asosiy tadqiqot obektimiz bo'lgan «Mirzo Ulug'bek» fojeasi umumta'limning 8-sinf adabiyot dastur va darsliklaridan o'rin olgan. Mazkur sinfda adabiyot fani haftasiga ikki soatdan o'tilib, jami 68 soatni tashkil etadi. Shundan: I chorakda 18 soat, II chorakda 16 soat, III chorakda 20 soat, IV chorakda 20 soatni o'z ichiga oladi.

M.Shayxzodaning hayoti va ijodi III chorakda o'tilib, unga quyidagicha soatlar ajratilgan:

«Mirzo Ulug'bek» tragediyasini o'qish. Tragediya haqida tushuncha mavzusiga 1 soat;

“Mirzo Ulug’bek” tragediyasi matni va timsollar ustida ihlash;

“Mirzo Ulug’bek” – ilm va ma’rifat homiysi” mavzusida nazorat ishi o’tkazishga 2 soat ajratilgan. Bunda o’quvchilarga qo’yiladigan talablar quyidagicha:

- badiiy asarni tarixiy haqiqat bilan bog’lab tushuna olish, asar qahramoni kechinmalaridagi ziddiyat sabablarini ahglash;
- asardahukmdor Ulug’bek bilan olim Ulug’bek o’rtasidagi ziddiyatlar sababini ahglash, asardagi ota va farzand munosabatidagi muammolar sababini tushunish;
- reja tuzish, reja asosidagi matnni to’liq yoritish, bog’lanishli nutqqa e’tibor qaratish, xulosalay olish ko’nikmalariga ega bo’lishlari kerak.²

Dramatik asarni o’rganishda o’qituvchining kirish so’zidan keyin, nasriy asarlarni o’rganishda bo’lgani kabi, u sinfda va uyda o’qiladi, so’ngra matn ustida ish olib boriladi. Jarayonni boshlashdan avval o’qituvchi bu asargacha o’rgangan dramalar matni yuzasidan olib borilgan ishlarni esga soladi. Darsning boshlanishida “Hamza” teatri aktyorlari ijrosidagi radiomantajdan parcha eshittirish yoki «Ulug’bek yulduzi» kinofilmi (rejissor L.Fayzullaev)dan ayrim lavhalarni namoyish qilish yaxshi natija beradi. Shundan so’ng darslikda berilgan parcha rollarga bo’lib o’qiladi. Bunda Ulug’bek rolini sinfdagi eng qobliyatli oquvchiga topshirish tavsiya etiladi.

O’qituvchi matn ustida ishlash jarayonida asardagi o’quvchilar tushunishi qiyin bo’lgan so’zlarni lug’at yordamida o’quvchilar bilan birga sharhlashga harakat qiladi:

Chin – Xitoy

Farahg – Fransiya

Dorug’a – boshliq

Ofoq – ufq, dunyo

² DTS. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali 2008-yil, 8-son,18-bet.

Xusuf – oy tutilishi

Urfon – ilm

Orif – ma’rifatli

Taad – zulm qilish...

Shuningdek, o’qituvchining matn ustida ishlash jarayonida kompozitsiya elementlariga o’quvchilar diqqatini tortish keyingi darslarda o’quvchilarning asardagi badiiy xususiyatlarni yaxshi o’zlashtirishga yo’l ochadi. Matn ustida ishlash jarayonida parda, remarka, replika, monolog, dialog, polilog singari kompozitsiya elementlari ham tushuntirib beriladi:

Remarka – (fr. “izoh”) dramatik asarlar matnidagi muallif izohi;

Replika – (fr. “e’tiroz”, “javob”) asarda ishtirok etuvchi shaxslarning personajlarga javobi, luqma tashlashi;

Monolog – bir kishining nutqi;

Dialog – ikki kishining nutqi;

Poliog – ko’p kishining nutqi;

Shaxzoda ushbu asarda bosh qahramon – Ulug’bek bilan «daf qilinmas» qora kuchlar o’rtasidagi murossasiz kurash, ziddiyat va bu tengsiz kurashda Ulug’bekning fojiali qurbon bo’lishini aks ettirdi.

Tabiiyki, asarda tasvirlangan murakkab voqealarni o’rganish maxsus tayyorgarlikni – fojia matnini jiddiy e’tibor bilan o’qib chiqishni, obrazlarni guruhlashni, tanqidiy adabiy asarlardan foydalangan holda tarixiy va to’qima obrazlarni aniqlashni, asar muallifining san’atkorlik mahoratini belgilashni talab etadi. Namuna sifatida o’qituvchi ma’ruzasi matnini keltiramiz:

Maqsud Shayxzoda fojia janridagi «Mirzo Ulug’bek» asarida Amir Temurning nabirasi, Shoxruxning o’g’li Ulug’bekning shohlik va olimlik faoliyatini, unga xos shaxsiy xislatlarni hayotiy haqiqatlar asosida, XV asr birinchi yarmidagi ijtimoiy – siyosiy hayotda davom etgan ziddiyatlarga boq’liq holda tasvirladi, Ulug’bek qurbon bo’lganini ko’rsatdi.

Asarda Ulug'bekning olimlik xislati o'z shogirdi Ali Qushchi bilan qilgan suhbatlari, oy tutilishi xususida qilgan bahslari, tabiatda yuz beradigan hodisalarning siri, ularning qonuniyatini ochish haqidagi fikr yuritishlarida ochiladi. Uning shohlik faoliyati Toshkentga hujum qilgan qipchoqlarga qarshi kurashi orqali ko'rsatiladi. Ana shu voqea ta'sirida Ulug'bekda ichki ruhiy iztirob, dard, alam kuchayadi. Buni biz Ali Qushchiga: «Oh azizim, shu serxatar yirtqich zamon senu menga ilmu fanga fursat qayoqda?»- deb aytgan so'zlarida ko'ramiz.

Ulug'bek adolatli hukmdor sifatida ish yuritadi, mamlakatda osoyishtalik bo'lishi uchun harakat qiladi, ilm-ma'rifat rivojiga, xalqni undan bahramand qilishga e'tibor beradi. U o'z mehnatining natijasini ko'rishni orzu qiladi. Maqsud Shayxzoda Ulug'bekning bu orzu – umidlarini ichki monologi orqali ochadi:

Qirq yil bo'ldi koinotning kitobin o'qib,
Ma'rifatning dargohiga qo'ydim ixlosim.
Og'ir bo'ldi qismat menga ortgan vazifa,
Men, sultonlar o'rtasida bo'ldim donishmand.
Donishmandlar tepasida sulton sanaldim,
Ma'rifatni hukumatga qilib rahnamo,
Bu o'lkaning yerida ham yulduzlar yoqdim.
Insonlarga aytib turdim: boqdin samoga,
Qancha toza va musaffo, farahbaxsh, zebo.
Ey , odamzod, ibrat olgan yulduzlardan sen
Xayrixohlik va balandlik xislatlaridan.
Shaltoqlarda ag'namagin , ko'taril, yuksal,
So'qir baxtdan ko'rar ko'zli baxtsizlik afzal.
Eh, saodatlar yaratilmas buyruqlar bilan,
Zehnlariga nur urug'in sepdim muttasil,
Katta hosil kutmoqdaman, nuroniy hosil!

Ulug'bek haqiqatgo'y, qat'iy so'zli bo'lib, inson degan nomni ulug'lagan, xotin-qizlarga hurmat ehtirom saqlagan shoh edi. Undagi bu oliy fazilatlar onasi Gavharshodbegim bilan uchrashganda namoyon bo'ladi. Onasi bilan uchrashgan payt tasvirlangan lavhada Ulug'bek o'ziga hayot baxsh etgan ulug' zot-onasidan minnatdor bo'lgan, onalik haqqini hamisha o'z gardanida his etgan yuksak qalbli inson bo'lganini ko'ramiz.

Ulug'bek Feruzani qalbdan sevadi. Uning haqida Abdulatif tarqatgan gaplarni ig'vo deb biladi. Ammo, onasi Gavharshodbegimdan ham bu xunuk xabarni eshitgach, Ulug'bekda shubha kuchayadi. Lekin shunda ham u o'zini dadil tutishga harakat qiladi, haqiqatning tantana bo'lganini ko'ramiz. Dramaturg Shayxzoda Feruza voqeasi bilan Ulug'bekda paydo bo'lgan iztirob, ruhiy kechinmalarni shunday tasvirlaydi:

Ko'p g'alati zamonda yashar ekanman,
Qalbidagi haroratni insonga berib,
Evaziga olmoqdaman sovuq g'arazlar.
Men otamga, jannatmakon Shohruh Mirzoga
Kamarbasta o'g'il bo'ldim qirq yil muttasil.
Ammo shuni o'g'illardan ko'rmadim, hayhot!
Abdulaziz fikri zaif, jismi nogiron.
Abdulatif- jisman tetik, xulqi xatarli.
Bu-ku mayli ! Onalarning ikrom- izzatin
Umr bo'yi talq'in etdim ahli vatanga.
O'z onamga ehtiromim evaziga men
Ne eshitdim! Zug'um bilan ta'na , arazlar.
Bu ham mayli! Feruzaning sha'niga g'iybat!
Yoki uning biron aybi bormikan bunda!
Yoki osmon kitobini varaqlab ochib,
Sirlarini o'rganmoqchi bo'lganim uchun
Falak mendan qasos olishga tushgan!

Yo'q, tushmagin vasvasaga, Mirzo Ulug'bek!

Shubha- boshqa, dalil- boshqa, xulosa- boshqa!

Vasvasalar shaytonga xos, umid – insonga.

Bu satrlarda Ulug'bekning faqat ruhiy iztirobi emas, balki o'zi bilan zamon o'rtasidagi ziddiyat, o'g'li Abdulatifdan noroziligi, Feruzaning pokligiga, haqiqatning g'alaba qilishga ishonchi ham o'z ifodasini topgan.

Ulug'bek kamtar, mehnat ahllariga mehribon shoh. Undagi bu fazilatlar Samarqand atrofida ov qilib qaytib kelayotganda dehqon Otamurodga bo'lgan samimiy munosabatida ko'rsatilgan. Ulug'bek dehqonga zulm qilgani uchun Abdulatifni taxt merosxo'rligidan mahrum etadi, uni Balxga hokim qilib tayinlaydi.

Ulug'bek Abdulatifning zimdan ish ko'rsatayotganini va u ko'rsatayotgan qarshilik keskin tus olayotganini ko'rgach, ruhan eziladi. Ayniqsa, Feruza haqida Abdulatif to'qigan ig'vo, tuhmat Ulug'bekning qalbiga qattiq ta'sir qiladi.

Ulug'bek bilan Abdulatif va uning atrofdagilar o'rtasidagi qarama-qarshilik, umuman u bilan zamon o'rtasidagi ziddiyat zindonda yotgan Piri Zindoniy bilan uchrashish lavhasida ham ochiladi, shu erda u o'zini fojiaga olib kelgan ziddiyatlarning sababini anglab oladi.

Voqealar so'ngida Ulug'bek Abdulatifning munofiq, taxtparast ig'vogar bo'lib yetishganiga, uning shunday bo'lishiga saroydagi muhit sabab bo'lganiga qat'iy ishonch hosil qiladi. U dushman tomonidan shaharning qurshab olinishidan, xalqning och qolishi, noroziligining kuchayishidan dushmanning elchi yuborib taslim bo'lishini talab etishidan azob chekadi, orzu –umidlari, ezgu niyatlari amalga oshmasligini his qiladi. Shayxzoda undagi ana shu ruhiy azobni o'z do'stlariga aytgan so'zlari orqali yoritadi:

Hammangizning ra'yingizni tingladim, do'stlar,

Hammangizga astoydil arzi – tashakkur!

Bilamanki, gaplaringiz vijdon sadosi,
Do'stlik bilan sadoq'atning qayg'usi , xolos.
Yolg'iz qolib bu pandlarni tortib ko'raman
Tafakkurning g'oyat hassos tarozusida.
Endi ruxsat, hammangizga – xayrli kecha.
Men u bilan shu tundayoq , kengashmoqchiman!

Ulug'bek tunda Amir Temurning qabriga kelib, o'g'li Abdulatifning qabih ishlarini, boshiga tushayotgan kulfatlarni, podsholik va olim sifatida qilgan ishlarining oqibati fojiali bo'layotganini izhor etadi va bobosidan madad so'rab, yo'l-yo'riq ko'rsatishni iltimos qiladi:

Bu kulfatli zamonda bergin maslahat,
Tag'in lashkar, tag'in jangu, yaroq-aslaha!
Oxiratga qadar shumi sultonlar ishi?..
Turkistonda garchi menga teng keladigan
Mergan yo'g'u, ammo urush ta'bimga yoqmas.
Jang, ma'raka, odam qirish, safarda yurish..
Sening sevgan nabirangga , menga iztirob,
Bobo Temur, bu jumboqqa o'zing ber javob:
Shohlar burchi yashatmoqchimi yoki o'limmi?
Quvvat nima ? Muruvvatmi yoki zulmmi?

Shayxzoda ushbu satrlarda Ulug'bekning ma'naviyatini, tarixning sirli muammolari qarshisida lol qolgan ulug' insonning ruhiy fojiasini tasvirlagan, ulug' shoh fojiasining eng yuqori nuqtasini ana shu lavhada ifodalangan.

Ulug'bek Piri Zindoniylar timsolida xalq kurashchilarini ko'radi. U shoh sifatida umri tugaganligiga ishonch hosil qilsa-da, olim sifatida samarali mehnat qilganini his etadi, shu fazilati tufayli nomining mangu qolishiga ishonadi.

Ulug'bek bobosi Amir Temur va otasi Shohruh qabrlari yonida fojiali hayotiga shunday yakun yasaydi:

Uxlang, uxlang shum dunyoning betinch shohlari,
Siz pashshadan ham beozor yotibsiz bunda,
Faqat goho kirasizlar tushlarga tunda,
Yotasizlar yangi-yangi qo'shinlar kutib,
Shahringizga ular kelar vaqtida etib..
Shohlar umri puchligiga bu isbot tugal.
Tiriklikning ro'yxatidan, kim bilar, bu gal-
Qay birini o'chirarkan kotibi azal.
Kim biladi, balki navbat menga etgandir,
Chunki umrim ozi qolib, ko'pi ketgandir.
Yo'q, yo'q, sulton o'lsa hamki donishmand yashar,
Olimlarga mangu hayot tarixi – bashar.

Ulug'bek o'z orzulari amalga oshadigan, baxtli zamon bunyod bo'lishiga ishonadi, shu fikr-o'ylari unga taskin beradi.

O'tib ketar bu dahshatlar, bu ma'rakalar,
Urush, vabo va jaholat o'tib ketadi.
Oh, naqadar saodatli bo'lur dunyomiz,
Va naqadar aziz bo'lur erkin odamzod.
Bu jahonda birodarlar qolur-ku, oxir,
Bir so'zimiz yo izimiz. U oydin elda,
Zora meni va bizlarni eslasalar bas!
Shunday do'stlar. Ammo, hanuz sulton ekanman,
Saltanatning muhri mening qo'limda ekan,
Buyurishga hali borkan salohiyatim,
Bu mansabda qilib qo'yay so'nggi yaxshilik.

Bu monologda Ulug'bek insonparvarligi, ilg'or g'oyalarga sodiqligi ifodalangan. Ulug'bek insonlarga so'nggi marta yaxshilik qilish niyatida

Piri Zindoniyni zindondan ozod qilishga farmon beradi, Feruzani o'ziga qayta nikohlab oladi.

Ulug'bek bir guruh fitnachilar tomonidan qatl etiladi. Bu shum xabarni eshitgan, umrida hech ko'z yoshi to'kmagan Piri Zindoni ham yig'lab, qattiq qayg'uradi.

Men yig'layman, yurak qoni bilan yig'layman!

etim qolgan el dardida kuyib yig'layman!

Bosh qo'yaman tuprog'iga ulug' insonning!

Dramaturg Maqsud Shayxzoda «Mirzo Ulug'bek» asarida hayotiy fojiani tasvirladi. U bizlarda insoniyat, kelajak avlod uchun ilm-fan ravnaqi yo'lida xizmat qilgan, fazo haqidagi fanga asos solgan ulug' inson Ulug'bekka nisbatan mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otdi. Biz «Mirzo Ulug'bek» fojiasini o'qir ekanmiz, qalbimizda Vatanimiz, xalqimiz tarbiyalab yetishtirgan Ulug'bekdek allomalar bilan faxrlanish tuyg'usi jo'sh uradi.

«Mirzo Ulug'bek» fojeasi besh pardadan iborat bo'lib, asosan, Mirzo Ulug'bek hayotining so'nggi yillarida ro'y bergan voqealarni o'z ichiga oladi.

8-sinf dasturiga esa dramaning I-IV-V pardalaridan parchalar kiritilgan. O'qituvchi asarning qolgan pardalari haqida umumiy ma'lumot bergach, darslik majmuada berilgan parchalarga o'quvchilar e'tiborini qaratmog'i lozim.

Ma'lumki, fojea asosini ikki yo'nalishdagi qahramonlar tashkil etadi. Uning birinchi pardasida olim va shoh Ulug'bek otasi Shohruhmirzoning ta'ziasiga kelgan va mamlakat bilan tanishib yurgan elchilarni qabul qiladi, ularga o'z asarlaridan ko'chirilgan nusxalarni tortiq qiladi. Shuningdek, tinch yashash, savdo va madaniy aloqalarni kuchaytirish haqida fikrlar aytadi. Elchilarni hurmat va izzat bilan kuzatadi.

Dramaning to'rtinchi ko'rinishida voqealar keskinlasha boradi. Bu pardada voqealar Ulug'bekning odil podshoh sifatida zindonni kuzatishi bilan boshlanadi. Ulug'bek nohaq zindonband qilinganlarni ozod qiladi. Ellik yildan buyon zindonda yotgan Piri Zindoniyning o'tkir va haqqoniy fikrlari oldida lol qoladi. Erk va ozodlik uchun kurashga o'zini fido qilgan, engilmas iroda egasi Piri Zindoniyning podshohlarsiz mamlakatni idora qilish haqidagi qarashini «ko'p qiziqarli masala» desa ham, lekin saltanatni himoya qiladi. Ulug'bek fikran engiladi «siz ellik yil g'aflat ichida qolgansiz, usta» degan so'zlarni takrorlashdan boshqa iloji qolmaydi va o'z-o'ziga shunday deydi:

Oh...Ko'p og'ir munozara. Bunaqasini

Ko'rmagandim umrim bino bo'lgandan beri!

Ulug'bek zindonbonga Piri Zindoniygga hurmat ko'rsatishni xohlagan narsasini berib turishni, ammo uni ozod kilmaslikni buyurib chiqib ketadi.

Beshinchi pardada esa Ulug'bek bobosi Amir Temurning qabrini ziyorat qiladi. Uning xayolida Temur timsoli gavdalanadi. Go'yo u bilan suhbatlashadi. Keyingi ko'rinishdagi voqealar fojeaning echimini tashkil qiladi. Ulug'bek qamalda azob chekayotgan xalqni o'ylab, taxtdan voz kechadi. U «toj yukidan qutilgan vijdoni»ni pok his qiladi. Ulug'bekning shoh sifatida so'nggi farmoni Piri Zindoniyni ozod qilish haqida bo'ladi. Raqiblar tomoni Ulug'bekning xalq osoyishtaligini istab qo'ygan barcha shartlarini qabul qiladi, lekin Abdullatif va dalariga xiyonat qiladi...

Asarning tili o'ziga xos bo'lib, oq sher o'lchovida yozilgan bu asarda o'xshatish, jonlantirish, tardi aks kabi san'atlardan mohirona foydalanib go'zal tasvirlar yaratadi. Matnni tahlil qilish jarayonida ularga alohida e'tibor qaratish lozim. "Samovotning oltin yo'lchisi", "Koinotning yosh kelini", "Ko'kning fonusi" kabi ifodalar fikrimiz isbotidir. Ulug'bekning o'lim oldidagi monologida esa takrir san'atining go'zal namunasini ko'ramiz:

Bir meroski, zamon uni mahv etolmaydi,

Bir meroski, vorislari bu Vatan ahli,

Bir meroski, bahra topar undan yer yuzi!

“Mirzo Ulug’bek”dramasini o’rganish dasturda belgilanganidek nazorat ishi (insho) yozish bilan yakunlanadi. **M.Shayxzodaning “Mirzo Ulug’bek” dramasi matnini o’rganish yuzasidan ishlangan bir soatlik dars ishlanmasi**

Mirzo Ulug’bek – ilm va ma’rifat homiysi.

Darsning maqsadi:

- a) O’quvchilarga “Mirzo Ulug’bek” dramasi haqida nazariy ma’lumot berish va ularda ushbu asar haqida tasavvur paydo qilish.
- b) “Mirzo Ulug’bek” dramasini o’qitish orqali o’quvchilarni vatanga bo’lgan muhabbatini oshirish va komil inson siymosini shakillantirish.
- c) O’quvchilarni “Mirzo Ulug’bek” dramasi bilan tanishtirish orqali Ulug’bek siymosini chuqurroq o’rganish va uning amalga oshirgan ishlarini o’quvchilarga o’rnak sifatida ko’rsatish.

Dars turi: Noan’anaviy

Dars jihozlari: darslik, taxta, bo’r, banner, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiyallar va multimediya.

Dars shiori: *Yoshlikda olingan bilm, toshga o’yilgan naqsh kabidir.*

Vaqt taqsimoti

№	Darsning borishi	ajratilgan vaqt
1	<i>Tashkiliy qism</i>	<i>2 daqiqa</i>
2	<i>Uyga vazifani so’rash</i>	<i>8 daqiqa</i>
3	<i>Yangi mavzuni tushintirish</i>	<i>10 daqiqa</i>
4	<i>Mustahkamlash</i>	<i>20 daqiqa</i>
5	<i>Yakuniy qism</i>	<i>5 daqiqa</i>

DARSNING BORISHI

Tashkiliy qism:

O'quvchilar bilan salomlashish, sanani va yangi mavzuni taxtaga yozish, o'tmoqchi bo'lgan mavzuning keyingi darslar bilan uzviy bog'liqligini tushintirib o'tish, shu orqali o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini orttirish. Mavzu uchun zarur adabiyotlarni e'lon qilish.

Uyga vazifani so'rash:

O'tilgan mavzu yuzasiadan uy vazifasini bajarib kelgan o'quvchilar baholanadi.

Yangi mavzuni tushintirish:

Maqsud Shayxzoda fojia janridagi «Mirzo Ulug'bek» asarida Amir Temurning nabirasi, Shoxruxning o'g'li Ulug'bekning shohlik va olimlik faoliyatini, unga xos shaxsiy xislatlarni hayotiy haqiqatlar asosida, XV asr birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayotda davom etgan ziddiyatlarga boq'liq holda tasvirladi, Ulug'bek qurbon bo'lganini ko'rsatdi.

Asarda Ulug'bekning olimlik xislati o'z shogirdi Ali Qushchi bilan qilgan suhbatlari, oy tutilishi xususida qilgan bahslari, tabiatda yuz beradigan hodisalarning siri, ularning qonuniyatini ochish haqidagi fikr yuritishlarida ochiladi. Uning shohlik faoliyati Toshkentga hujum qilgan qipchoqlarga qarshi kurashi orqali ko'rsatiladi. Ana shu voqea ta'sirida Ulug'bekda ichki ruhiy iztirob, dard, alam kuchayadi. Buni biz Ali Qushchiga: «Oh azizim, shu serxatar yirtqich zamon senu menga ilmu fanga fursat qayoqda?»- deb aytgan so'zlarida ko'ramiz.

Ulug'bek adolatli hukmdor sifatida ish yuritadi, mamlakatda osoyishtalik bo'lishi uchun harakat qiladi, ilm-ma'rifat rivojiga, xalqni undan bahramand qilishga e'tibor beradi. U o'z mehnatining natijasini ko'rishni orzu qiladi...

Mustahkamlash.

Sinf o'quvchilari shartli ravishda 4 guruhga bo'linishadi va har bir guruh mavzuga mos holda “Temur” “Ulug'bek”, “Ali Qushchi”, “Piri Zindoniy”

singari nomlar bilan nomlanadi. Guruhlar quyidagi topshiriqlarni olgan nazariy bilimlari asosida bajarishadi.

1-topshiriq:

“Mirzo Ulug’bek”			
Asardagi tarixiy shaxslarning nomlari	Asardagi to’qima obrazlari	Asarda tilga olingan o’lka nomlari	Ulug’bek amalga oshirgan ezgu ishlar
Temur Ulug’bek Sakkokiy	Feruza Piri Zindoniy Bobo Rayfiy	Chin Misr Farang	Shaharlar qurdiradi, kashfiyotlar qiladi

Guruhlar yuqoridagi jadvalni o’zlari olgan nazariy bilimlari asosida to’ldirishadi.

2-topshiriq.

O’quvchilarga «Ulug’bek yulduzi» kinofilmi (rejissor L.Fayzullaev)dan lavhalar namoyish qilinadi. O’quvchilar esa ushbu filmni tomosha qilib bo’lgach, o’z fikrlarini o’rtoqlashadilar.

3-topshiriq.

Guruhlar quyida berilgan jadvalni ikkita asos bo’yicha to’ldirishlari lozim. Birinchi ustunda Mirzo Ulug’bek – tarixiy shaxs haqdagi ma’lumotlarini yozishlari lozim bo’lsa, ikkinchi ustunda “Mirzo Ulug’bek”

dramasidagi Ulug'bek obrazi faoliyati haqidagi ma'lumotlarni yozishlari darkor.

“Mirzo Ulug'bek”	
Tarixiy shaxs sifatida	Asardagi bosh qahramon sifatida

Yakuniy qism.

Uyga vazifa berishdan oldin darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar mustahkamlashda bajargan ishlari saviyasiga qarab baholanadi.

Uyga vazifa: drama matnini o'qib kelish, mavzu yuzasidan har bir o'quvchiga o'z imkoniyati va iqtidoridan kelib chiqqan holda quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

1. Ijodiy matn tayyorlash.
2. “Mirzo Ulug'bek” dramasi asosida surat tayyorlash.
3. Mavzu yuzasidan test tuzish.
4. Krasvord tuzish.

UMUMIY XULOSALAR

Mana, biz taniqli shoir, dramaturg va yirik adabiyotshunos M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug`bek» dramasida axloqiy va ma`naviy masalalarning qo`yilishi va echilishi muammolarini imkoniyat qadar o`rganib chiqdik. Va albatta, uni 8-sinf o`quvchilariga o`rgatishning o`ziga xos usullari haqida o`z tajribalarimizni, fikr-mulohazalarimizni bayon qilishga harakat qildik. Kuzatuvlarimiz shuni ko`rsatdiki, xalqining ma`naviy va axloqiy qadriyatlarini chuqur hurmat qiladigan va qadrlaydigan M.Shayxzoda barcha zamonlarda bir xil ahamiyat kasb etib, millat taraqqiyotini belgilaydigan muhim masalalarni asosiy mavzu sifatida tanlab, vatandoshlar badiiy-estetik qarashlari takomiliga hissa qo`shgan adibdir.

Respublikamiz Prezidenti Islom Abdug`nievich Karimov ta`kidlaganidek, sovet sotsialistik davlati xalqimiz hayotiga chetdan zo`ravonlik bilan joriy qilingan edi. Bu davlatning shakli va mohiyati xalqimizning axloqiy va ma`naviy, ruhiy qadriyatlariga to`g`ri kelmaydigan, mos kelmaydigan tuzumga asoslangan edi... Bu tuzum o`z xalqining tarixini, uning ruhi, urf-odatlarini, o`z avlod-ajdodlarini bilmaydigan manqurtlikka tayanar edi. Shuning uchun ham eski sovet tuzumining bayroqlarida va shiorlarida ilgari surilgan g`oyalar amaliyotdan juda uzoqda edi. Xuddi shu

bois bu davlatning ijtimoiy tuzumi bilan xalq ehtiyojlari o`rtasida katta jarlik paydo bo`ldi.³

Darhaqiqat, shuning uchun ham ma`naviy va axloqiy jabhalarda keskin buzilishlar paydo bo`ldi. M.Shayxzodaga o`xshagan xalq dilidagini tezkorlik bilan ilg`ab oladigan talantli adiblar ma`naviyat sofliqi, axloqiy poklik uchun bong urdilar.

Qisqasi, M.Shayxzoda XX asr adabiyoti, xususan, dramaturgiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo`shgan ijodkordir. Uning asarlari bugungi kunda ham yoshlarimiz tarbiyasini mukammallashtirishga, ularni xalq va Vatan oldida, ma`naviy qadriyatlarimiz oldida burchdor ekanligini his qilishga ko`maklashuvchi omil sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham mazkur adibning asarlari respublika teatrlari repertuarlaridan doimiy o`rin egallagan.

O`zbek adabiyotining atoqli vakili Maqsud Shayxzodaning «Mirzo Ulug`bek» fojiaviy asari endilikda o`rta maktab adabiyot dasturidan mustahkam o`rin olgan asarlardan biri bo`lib qoldi. Asosiy tadqiqot obektimiz bo`lgan «Mirzo Ulug`bek» fojeasi umumta`limning 8-sinf adabiyot dastur va darsliklaridan o`rin olgan. Mazkur sinfda adabiyot fani haftasiga ikki soatdan o`tilib, jami 68 soatni tashkil etadi. M.Shayxzodaning hayoti va ijodi III chorakda o`tilib, unga quyidagicha soatlar ajratilgan:

“Mirzo Ulug`bek” tragediyasini o`qish. Tragediya haqida tushuncha mavzusiga 1 soat;

“Mirzo Ulug`bek” tragediyasi matni va timsollar ustida ihlash;

³ Bu haqda qarang: I.A.Karimov. O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. «Xalq so`zi», 1995- yil, 24- fevral.

- “Mirzo Ulug’bek” – ilm va ma’rifat homiysi” mavzusida nazorat ishi o’tkazishga 2 soat ajratilgan.

Dramatik asarni o’rganishda o’qituvchining kirish so’zidan keyin, nasriy asarlarni o’rganishda bo’lgani kabi, u sinfda va uyda o’qiladi, so’ngra matn ustida ish olib boriladi. Darsning boshlanishida “Hamza” teatri aktyorlari ijrosidagi radiomantajdan parcha eshittirish yoki «Ulug’bek yulduzi» kinofilmi (rejissor L.Fayzullaev)dan ayrim lavhalarni namoyish qilish yaxshi natija beradi. Shundan so’ng darslikda berilgan parcha rollarga bo’lib o’qiladi. Bunda Ulug’bek rolini sinfdagi eng qobliyatli oquvchiga topshirish tavsiya etiladi.

O’qituvchi matn ustida ishlash jarayonida asardagi o’quvchilar tushunishi qiyin bo’lgan so’zlarni lug’at yordamida o’quvchilar bilan birga sharhlashga harakat qiladi. Yuqorida aytilgan fikrlar asosida tashkil qilingan dars samaradorligi yuqori bo’lishi tayin.

Asarda davrning eng dolzarb muammolaridan biri halollik, vijdon va imon masalalari ishonarli tarzda ko’tarilgan va tomoshabinlarni chuqur mulohaza orqali ushbu qadriyatlar asosida tarbiyalovchi g’oyalar ilgari surilgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

- 1.Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.T. “Ma'naviyat”. 2008.
- 2.Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. T., Fan, 1978.
- 3.Boboev.T. Adabiyotshunoslik asoslari. T. «O'zbekiston», 2002.
- 4.Jalilov B. O'zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari. T., Fan, 1984.
- 5.Imomov B. Dramaturgiyada mahorat sirlari. T., Fan, 1991.
- 6.Imomov va boshqalar. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. T., O'qituvchi, 1995.
- 7.Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. T., O'qituvchi, 1980.
- 8.Mualliflar jamoasi. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T., O'qituvchi, 1999.
9. Salaev F.Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi.T. Yangi asr avlodi. 2010.
- 10.Jalilov B.,Sharipova M.Maktabda dramatik asarlarni o'rganish. T. “O'qituvchi”. 1992.
11. DTS. “Til va adabiyot ta'limi” jurnali 2008-yil, 8-son.
- 12.To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T. “Yangi asr avlodi”. 2006.
- 13.Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T. “O'qituvshi” 1996.
- 14.S.Olim va boshqalar. Adabiyot. 8-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T. “G'.Gulom”. 2006.
15. Olim va boshqalar. Adabiyot. 8-sinf. Darslik-majmua. T. “G'.Gulom”. 2006.
16. <http://pedagog.uz/>
17. www.o'zbekadabiyoti.com

